

## MUQIMIY HAYOTI VA IJODINING O'RGANILISHI

Yahyoyeva Dildora Baxtiyor qizi,

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU 2-kurs magistranti

**Annotatsiya.** Maqolada Qo'qon adabiy muhitining iste'dodli vakili, XIX asrning II yarmida samarali ijod qilgan ma'rifatparvar - Muqimiyning hayoti va ijodi o'rganilishi haqida so'z boradi. Xususan, shoir biografiyasi hamda adabiy merosining mustaqillikkacha hamda mustaqillikdan keyingi o'rganilish bosqichlari ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** O'rganilish, g'oyaviy tahrir, mustaqillik, mafkura.

**Abstract.** The article deals with the study of the life and work of Mukimi, a talented representative of the Kokand literary environment, an enlightener who was productive in the second half of the 19th century. In particular, the poet's biography and the stages of the development of his literary heritage before and after independence are considered.

**Keywords:** Study, ideological editing, independence, ideology.

**Аннотация.** В статье рассматривается жизнь и творчество Мукими, талантливого представителя кокандской литературной среды, просветителя, плодотворно проявившего себя во второй половине XIX века. В частности, анализируется биография поэта и этапы развития его литературного наследия до и после обретения независимости.

**Ключевые слова:** исследование, идеологическое редактирование, независимость, идеология.

**Kirish.** XIX-XX asr o'zbek milliy madaniyati markazlaridan biri, shubhasiz, Qo'qon shahri edi. Bu yerda XVIII-XIX asrning I yarmida ilm-ma'rifat olamida nomi dunyoga mashhur bo'lgan ulug' mutafakkir shoirlar yetishib chiqdi. Ushbu davr o'zbek demokratik adabiyotining eng ko'zga ko'ringan vakillaridan, bu adabiyotni yuzaga chiqishida sababchi bo'lgan ma'rifatparvar ijodkorlardan biri Muhammad Aminxo'ja Mirzaxo'ja o'g'li Muqimiydir. U o'ziga xos uslubi va teran nigohi bilan Furqat, Zavqiy, Avaz O'tar, Almaiy, Muhayyir, Anbar Otin singari zamondosh ijodkorlaridan ajralib turadi. U oddiy oilaning farzandi o'laroq oddiy insonlarning, jamiyat kishilarining xaloskori bo'la olgan ma'rifatparvar shoirdir. Uning turli mavzudagi lirik she'rlari hamda davr voqeliklarini aks ettiruvchi hajviy merosi ahamiyatlidir. U lirik shoir sifatida qanchalik mashhur bo'lsa, kuchli satirik sifatida ham shunchalik bo'la oldi. Olim A.Abdug'afurov o'zining "Muqimiy satirasi" nomli kitobida "Muqimiyning ijodi chin ma'noda xalqchildir – u ezilgan mehnatkash omma, xonavayron qishloq dehqonlarining sodiq vakili, oddiy inson his-tuyg'ularining asl kuychisi bo'lib maydonga chiqdi: shoir shu xalqchilik pozitsiyasidan ularning alamli qorong'u hayotini, dard-u tashvishini, orzu-intilishlarini, realistik bo'yoqlarda yuksak badiiylik bilan ifodaladi, yorqin turmush, "yaxshi zamon" keladi, - deya bashorat qildi" deganida haq edi. Muqimiyning hayoti va faoliyati borasidagi qiziqishlar uning hayotlik chog'laridayoq boshlangan bo'lib, shoir haqida turli qarashlar tug'ilgan edi. Muqimiy tirikligidayoq uning ijodiy faoliyatiga bo'lgan turli munosabatlar va atrofidagi fikrlar kurashi uning vafotidan so'ng yanada kuchayadi, turli tarixiy sharoitlarda turlicha shaklda davom etadi.

Muqimiyshunoslik, asosan, shoirning asarlarini nashr ettirish va ommalashtirishdan boshlangan. Muqimiy vafotidan 4 yil o'tgach, 1907-yilda Nikolay Ostroumov Toshkentda "Devoni Muqimiy" nomli kichik bir to'plam nashr ettirdi. To'plamning oxirida N.Ostroumov tomonidan yozilgan kichik maqola ham ilova qilingan bo'lib, bu maqolada muallif Muqimiyning tarjimai holi haqida ma'lumot beradi, uning shaxsiyati va ijodiy faoliyatini baholaydi. Ostroumov Muqimiyning "umrini qalandarona o'tkarmoqni lozim topib, tarki dunyo qilgan, darvishlik tariqatini qabul etgan kishi", - deb talqin qiladi. Ostroumov o'z xarakteristikasining oxirida, "Muqimiy kunduzlari din ahllari xizmatida bo'lar va madrasa hujrasida o'tirar, kechalari esa Qur'on o'qish ("Kalomullo talovati") va she'r yozish bilan shug'ullanar edi", - deb ko'rsatar edi. Shunday qilib, Nikolay Ostroumov qaysidir ma'noda Muqimiyning bu dunyodan voz kechgan, tarki dunyo qilgan dindor, fanatik bir shaxs qilib qo'yadi.

**Adabiyotlar sharhi.** 1910-yilda Toshkentda Porsev litografiyasida va 1912-yilda Toshkentda Orifjonov tipolitografiyasida "Devoni Muqimiy maa' hajviyot" nomi bilan 2 marotaba Muqimiy asarlarining to'plami nashr qilindi. Bu har ikki to'plamda ham Muqimiy ijodiy qiyofasini yoritishda N.Ostroumov "konsepsiyasi" davom ettirildi.

1938-yilda respublikamizda Muqimiyning vafotiga 35 yil to'lishi munosabati bilan o'tkazilgan yubiley davrida shoir hayoti va ijodini o'rganish sohasida keskin burilish ro'y berdi. Yubileyga tayyorgarlik davrida Muqimiy asarlarini to'plash, o'rganish, nashr etish ustida qizg'in va samarali ishlar olib borildi, gazeta va jurnallarda ko'plab maqolalar bosildi. Jumladan, bu borada G'afur G'ulomning amalga oshirgan ishlari diqqatga sazovordir. G'afur G'ulom tomonidan 1938-yilda Toshkentda "Muqimiy bayozi" nomli to'plam nashr qilindi, ushbu bayozda shoirning 800 misradan iborat 27 she'ri berilgan bo'lib, ular janriga ko'ra joylashtirib chiqilgan. To'plamning bosh qismida kichik so'z boshi ham berilgan bo'lib, unda shoir biografiyasi va ijodining eng muhim tomonlari tavsiflangan. G'afur G'ulomning 1953-yil nashrga tayyorlagan "Muqimiy.Tanlangan asarlar" nomli asarida ham Muqimiyning hayoti haqida qisqacha ma'lumot berib o'tiladi va uning lirik asarlari tortiq qilinadi. Undan shoirning hajviy asarlari, "Sayohatnoma"si, maktublari, bir qator g'azallari, mu'rabbalari hamda muxammaslari o'rin egallagan. 1958-yil nashrga tayyorlangan "Muqimiy.Tanlangan asarlar" esa biroz to'ldirilgan, yangilangan to'plam bo'ldi. Jumladan, oldingi nashrdagidan farqli o'laroq, bunda hajviyot bo'limi ikkita alohida guruhlariga bo'lindi: satiralar va yumorlar tarzida, "Sayohatnoma" yangilangan variantda berildi, maktubotlar esa hajman kengaydi, lirikasidagi g'azallar, muxammas va murabba'lar soni ko'payib, unga qo'shimcha tarzda ruboiy, tuyuq va fardlar ushbu nashrdan joy oldi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Muqimiy va u yashagan davr adabiyotiga bo'lgan qiziqish sovet adabiyotshunosligida borgan sari kuchayib bordi. Keyinchalik 1953-yilda Muqimiy ijodini o'rganish tarixida yangi davr paydo bo'ldi. Shu yili Muqimiy vafotiga 50 yil to'lishi munosabati bilan shoir hayoti va ijodini o'rganish, uni ommalashtirish

sohasida ancha katta ishlar qilindi. Ushbu davrda gazeta va jurnallarda Muqimiy hayoti va ijodiga doir juda ko'p maqolalar bosildi, shoirga bag'ishlab kitoblar chiqarildi hamda Muqimiyning yangi "Tanlangan asarlar" to'plami rus va o'zbek tillarida nashr etildi. Shubhasiz, bu asarlar va shu kabi bir qator ishlar adabiyotshunosligimizning keyingi davrlarda erishgan jiddiy yutuqlardan bo'lishiga qaramay, bu davrda yashab ijod etgan shoirlar faoliyatini, shu jumladan, atoqli demokrat shoir Muqimiy hayoti va faoliyatini chuqur ilmiy asosda o'rganish hamon adabiyotshunoslikning muhim vazifalaridan biri bo'lib kelmoqda. To'g'ri, shoir ijodi namunalari yuzasidan ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Afsuski, ularda Muqimiy asarlari sho'ro davri mafkurasi talabiga ko'ra bir tomonlama talqin qilingan. Natijada, shoir nazmiy merosi o'zining asosiy mohiyatidan uzoqlashtirildi. Ya'ni asarlari tahrirga uchradi, qisqartirildi, manbalarda qolib ketdi. Muqimiy asarlari turli qo'lyozma va toshbosma bayozlarda, san'atkorlarning yon daftarlarida, adabiyot havaskorlari kolleksiyalarida, ayrim parcha qog'ozlarda turli kishilar qo'lida saqlanib kelingan. Ta'kidlash joizki, shoir asarlarini yig'ish va nashr etishda professor G'.Karimovning xizmatlari beqiyos, u tomonidan "Asarlar to'plami" jami to'rt marta (1958, 1960, 1973, 1974) chop etilgan. Lekin, afsuski, bu nashrlarda Muqimiy ijodi kommunistik mafkuraning kuchli tazyiqi sabab to'liq va mukammal holda nashr etilgan emas. Shoirning nazmiy asarlariga bag'ishlangan tadqiqotlari, xususan, 1962-yili yoqlangan "O'zbek demokrat shoiri Muqimiy va uning davri adabiyoti" mavzuidagi doktorlik dissertatsiyasi, 1970-yili nashr etilgan "Muqimiy. Hayoti va ijodi" nomli monografiyasi Muqimiy hayoti va ijodi tadqiqiga bag'ishlangan birinchi yirik monografiyadir. Unda shoir hayoti va ijodi muqimiyshunoslikning o'sha davrdagi mavjud yutuqlarini mujassamlashtirgan holda ancha mufassal tadqiq etilgan. G'.Karimov tomonidan nashr etilgan universitetlar va pedagogika institutlari filologiya fakultetlari uchun "O'zbek adabiyoti tarixi" darsligida ham (1966, 1975, 1987) shoir hayoti va ijodi muqimiyshunoslikning o'sha paytdagi eng so'nggi yutuqlari asosida o'rganilgan.

**Natijalar.** Bundan tashqari, shoir hayoti haqida bir qancha izlanishlar olib borgan shaxs bu – Qo'qon o'lkani o'rganish muzeyining xodimi bo'lgan Asqarali Hamraaliyev (Charxiy) dir. Bu ma'lumotni Anvar Shomaqsudovning "Muqimiy satirasining tili" kitobida uchratamiz. U kitobida Charxiy haqida quyidagi ma'lumotlarni keltiradi: *"Charxiy Muqimiy haqida ma'lumot to'plash uchun shoirni biladigan keksalar bilan ko'p marta suhbatlashgan. Suhbatlardan birida qo'qonlik bir keksa Muqimiyning ta'qib ostiga olinganini ko'rsatuvchi bir voqeani so'zlab bergan. Keksaning eslashicha, kunlardan bir kun Muqimiy uni o'z hujrasiga kechqurun, qosh qoraygandan keyin kelishini iltimos qilgan. U kelganida Muqimiy unga qog'oz va daftarlar solingan bir xalta bergan va bu yozuvlarni tezda yo'qotishni tayinlagan. Kexsa xaltadagi qog'ozlar Muqimiyning hajviy asarlari bo'lganini va bu asarlarni u Qo'qon soyiga hech kimga bildirmay oqizib yuborganini zo'r achinish bilan so'zlab bergan. Bundan tashqari, Muqimiyning podsholik tomonidan ta'qib ostiga olinganini uning "Axtaring" she'ri ham yaqqol ko'rsatadi:*

*Podshoh yo 'qlatsalar nogah gado deb axtaring,  
Tutmang hargiz nomini, baxti qaro deb axtaring.*

*Dahr zulmidin sirishki tinmay oqib, aylanur  
Charx javridin boshida osiyo deb axtaring.”*

Ma'rifatparvar ijodkor Muqimiy hayoti va ijodiga doir yana ko'plab manbalar mavjudki, ular bilan yaqindan tanishish va ba'zi bahsli o'rinlarini hamda davr nuqtayi nazardan bildirilgan fikrlarni qayta ko'rib chiqish zarurati mavjud edi va bunday imkoniyat mustaqillikdan keyin yuzaga chiqdi. Vatanimiz O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida e'lon qilinishi mutelik va huquqsizlikka chek qo'ydi. Istiqlol tufayli juda ko'p qadriyatlarimiz tiklandi, xalqning qatag'onga uchragan asl farzandlarining muborak nomlari oqlandi, adabiy meroslari xalq qo'liga, adabiyot ixlosmandlariga qaytarila boshlandi, buyuk ma'rifatparvarlarning ishlari yangidan, siyosiy mafkuralardan xoli tarzda o'rganildi. Jumladan, Muqimiydek shoirlarimiz ijodiga tubdan yangi nazar tashlandi, ularning adabiy merosi umuman yangicha ruhda o'rganilib, asl manosi yuzga chiqarildi, ya'ni haqiqat buloqlarining ko'zini hech kim ko'mib tashlay olmadi. Chunki mardona hayoti va ijodi bilan bugungi sharafli kunlarning tamal toshini qo'ygan ma'rifatparvar-jadidlar va boshqa fidoyi insonlar qon yutib orzu qilgan mustaqillik kunlari yetib kelgandi. Ularning hayot yo'llari, taqdirlari, qoldirgan nodir asarlari, obidaları o'rganila boshlandi. Bu singari harakatlar tariximizni yanada o'rganish, o'zligimizni anglash yo'lida salmoqli qadamlardan biri bo'lib xizmat qildi.

Ana shunday o'rganishlar, izlanishlar, anglashlar qatorida Muqimiy va uning namunali ijodi ham bor edi. Istiqlol tufayli adolat qaror topgan davrda Muqimiydek hassos shoirning ijodi, umuman, ijodidagi har bir she'ri yangidan o'rganildi. Shoir hayotini mustaqillik davrida o'rgangan olimlardan biri professor **Begali Qosimov**dir. U shoir va ijtimoiy muhit masalalariga quyidagicha munosabat bildiradi: *“Shoirlardan Muqimiy, bir tomondan mumtoz adabiyotimizdagi eng yaxshi ana'analarni davom ettirdi. Ikkinchi yoqdan, rus istilosi tufayli ijtimoiy hayotda kechayotgan o'zgarishlarni adabiyotga olib kirdi. Masalan, zavod-fabrikalar ishga tushib, ishchilar sinfining maydonga chiqishi, tili, dini, urf-udumlari, hatto hayot tarzi keskin farq qiluvchi Yevropaning Turkistonga kirib kelishi va buning mahalliy xalqqa, uning turmushiga yetkazgan ta'siri, yevropalashuv tomon qo'yilgan qadamlarning yaxshi-yomon jihatlari tahlili tahlili ilk daf'a Muqimiy ijodida aks etdi. Muqimiy yangilana boshlagan adabiyotning g'oya va mazmunigagina emas, shaklu ifodalariga ham ma'lum yangiliklar kiritdi. Hajvg alohida e'tibor berdi. Ijtimoiy fikrga, jamiyat tanqidiga maxsus diqqatni qaratdi. Biroq, shunga qaramay muallif shoirning murakkab ijodiy yo'li va sermazmun adabiy merosini mustaqillik, millat va vatan manfaatları nuqtayi nazaridan qayta ko'zdan kechirish va xulosalar chiqarishga ehtiyoj bor ekanligini alohida ta'kidlaydi.*

Mustaqillik yillarida Muqimiy hayoti, ijodi va merosi bo'yicha samarali izlanish olib borgan yana bir olim – **Otabek Jo'raboyev**dir. Uning **“Mehribone topmadim”**,

“**Muqimiy qo‘lyozmalarida forsiy she‘rlar**” kabi ishlari buning yorqin dalilidir. Muqimiyshunosning “Guliston” jurnali 1999-yil 2-sonidagi “**Muqimiyning cho‘ntak bayozi**”, “Til va adabiyot ta‘limi” jurnali 2001-yil 3-sonidagi “**Qo‘lyozma manbalarda Muqimiy ijodi**” kabi maqolalarida ham Muqimiy ijodining o‘rganilmagan jihatlari haqida qimmatli ma‘lumotlar uchraydi. Bu kabi yangi ma‘lumotlar Muqimiy ijodining hali tadqiqotchilar e‘tibori yetarli qaratilmagan jihatlarga bag‘ishlanganligi, ko‘p hollarda muhim masalalar o‘rtaga qo‘yilib, puxta hal etilganligi bilan e‘tiborga molik. Tekshirishlardan ma‘lum bo‘lishicha, Muqimiy qo‘lyozmalaridan ko‘pgina lirik asarlar yo‘qolgan yoki hanuzgacha topilgani yo‘q. Uning adabiy merosi hali mukammal o‘rganilmagan yoki istiqlolgacha bo‘lgan davrdagi tuzum mafkurasining tazyiqi bilan biryozlama tahlil etilgan. Mana shunday o‘rganishlar qatorida adabiyotshunosligimiz rivojida muhim o‘rin tutgan fan doktori **Qo‘ldosh Pardayevning** ishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Olim, nafaqat ilmiy-ijodiy faoliyatini, balki hayotining katta qismini Muqimiydek ma‘rifatparvar shoir hayoti va ijodini yangidan o‘rganishga bag‘ishladi, desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. U o‘zining bu boradagi izlanishlarini “**Biz bilmagan Muqimiy**” kitobi, “**Muqimiy she‘riyati: matn tarixi, tahriri va talqini**” monografiyasi va shu mavzuga doir bir qator maqolalarida aks ettirdi. Bunda shoirning hayoti va ijodi shu vaqtga qadar o‘rganilgan va nashr etilgan materiallar va asl manbalar asosida taqqoslab o‘rganildi. Qo‘ldosh Pardayev sho‘rolar davrida milliy adabiyotimiz tarixi kommunistik mafkuraga moslashtirilgani, ulug‘ shoir-u adiblarimiz asarlari “g‘oyaviy tahrir”dan o‘tkazilgani, mohiyatga zid talqin etilganini ta‘kidlaydi, XIX asr oxiri - XX asr boshlaridagi Qo‘qon adabiy muhitida yetakchi shoirlardan bo‘lgan Muqimiyning adabiy merosi ham ana shunday adolatsizlik qurboniga aylanganligini aytadi. Matnshunos olim Muqimiy asarlarining respublikamiz qo‘lyozma fondlarida saqlanayotgan har bir qo‘lyozmasini sinchiklab o‘rgandi, shoir she‘rlariga doir qo‘lyozmalarni bandma-band, satrma-satr, so‘zma-so‘z qiyosladi, tahlildan o‘tkazdi. Tayanch manba sanalgan shoirning o‘z qo‘li bilan ko‘chirilgan dastxat bayozlarni tadqiq qildi. Natijada shoir asarlarining sho‘ro davridagi nashrlaridan tushirib qoldirilgan g‘azallardan – 69 bayt (138 misra), muxammaslardan 12 band (60 misra), masnaviylardan 11 bayt (22 misra), murabba‘dan 1 misra va “Sayohatnoma”dan 16 band (64 misra) – jami 285 misra she‘rni qayta tikladi. Bundan tashqari, muttasil izlanishlar natijasida Muqimiyning shu vaqtgacha ilmiy jamoatchilikka ma‘lum bo‘lmagan 13 g‘azal, 3 muxammas – jami 194 misra she‘rini aniqlab, birinchi marta ilmiy muomalaga olib kirdi. Shu singari izlanishlar natijasida Muqimiy haqida mavjud ma‘lumotlarning, talqinlarning aksari ilmiy haqiqatga mutlaqo zid ekanligi ayon bo‘ldi.

**Xulosa.** Qo‘ldosh Pardayevning “G‘afur G‘ulom va Muqimiy she‘riyati matni”, “Muqimiy she‘riyatining matn tarixi”, “Muqimiy lirik asarlarining matniy-qiyosiy tahlili”, “Muqimiy ijodiga yangicha munosabat” kabi maqolalari bu boradagi izlanishlar natijasidir. Ko‘rinib turibdi-ki, shoir hayoti va ijodiga doir materiallar, manbalar,

izlanishlar mavjud, bundan tashqari, bir qancha shoirlarning asarlaridan namunalar keltirilgan o'sha davrdagi bayozlarda ham Muqimiy haqida fikr yuritilgan, ijodidan namunalar berilgan. Lekin ayrim ishlarni qayta ko'rib chiqish, Muqimiy shaxsiga va uning ijodiga boshqacha yondashish, asarlarini to'g'ri va benuqson ochib berish zarurati hamon saqlanib qolinmoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдуғафуров А. Муқимий сатираси.-Тошкент: Фан, 1976.-Б.3
2. Ёқубов Ҳ. Ўзбек демократ шоири Муқимий.-Тошкент:1953, Б.11
3. Каримов Ғ. Ўзбек адабиёти тарихи. Учинчи китоб.-Тошкент: Ўқитувчи, 1987
4. Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У., Ризаев Ш., Аҳмедов С. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти.-Тошкент:Маънавият, 2004.-Б.61
5. Зарифов Ҳ. Муқимий ҳаёти ва ижодига оид материаллар.-Тошкент: Фан, 1955.-Б.34
6. Pardayev Q. Muqimiy she'riyati: matn tarixi, tahriri va talqini, Toshkent:Muharrir, 2019.-B.5-48
7. Pardayev Q. Biz bilmagan Muqimiy.- Toshkent: Muharrir, 2019.-B.7
8. Шомақсудов А. Муқимий сатирасининг тили. - Тошкент:1970, Б.123
9. [www.natlib.uz](http://www.natlib.uz)
10. [www.unilibrary.uz](http://www.unilibrary.uz)

